

**Sharapova Mashxura, Isaxonova Ruxshona**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

## **DAVLAT BYUDJETIDAN MOLİYALASHTIRILADIGAN AHOLINI IJTIMOİY HIMOYALASH XARAJATLARINI OPTIMALLASHTIRISH MASALALARI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada aholini ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini davlat byudjeti mablagʻlari hisobidan moliyalashtirish masalalari yoritilgan va tahlil qilingan. Shuningdek, davlat byudjeti xarajatlari tarkibida aholini ijtimoiy himoyalash xarajatlarini optimallashtirish masalalariga eʼtibor qaratilgan.

**Tayanch soʻzlar:** ijtimoiy himoya, ijtimoiy taʼminot, ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash, ijtimoiy nafaqa, davlat byudjeti, byudjet xarajatlari, “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari”.

## **ОПТИМИЗАЦИЯ РАСХОДОВ НА СОЦИАЛЬНУЮ ЗАЩИТУ НАСЕЛЕНИЯ, ФИНАНСИРУЕМЫЕ ИЗ ГОСУДАРСТВЕННОГО БЮДЖЕТА**

**Аннотация.** В данной статье освещаются и анализируются вопросы финансирования населения, нуждающегося в социальной защите, из государственного бюджета. Также уделяется внимание вопросам оптимизации расходов на социальную защиту населения в рамках расходов государственного бюджета.

**Ключевые слова:** социальная поддержка, социальная защита, социальная помощь, социальное обеспечение, государственный бюджет, бюджетные расходы, «Темир daftar», «Аёллар дафтари», «Ёшлар дафтари».

## **OPTIMIZATION OF EXPENDITURES FOR SOCIAL PROTECTION OF THE POPULATION, FINANCED FROM THE STATE BUDGET**

**Abstract.** In this article, issues related to financing the needs of the population for social support from the state budget funds have been highlighted

and analyzed. Also, attention has been paid to optimizing the costs of social support in the composition of state budget expenditures.

**Key words:** social support, social protection, social assistance, social welfare, state budget, budget expenditures, “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari”.

### **Kirish**

O‘zbekistonda kechayotgan bugungi o‘zgarishlar mamlakatda yangi bosqichni boshlab berdi, desak xato bo‘lmaydi. Chunki, yurtimizda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va boshqa sohalarda yuz berayotgan ulkan yangilanishlar davlatimizning dunyo hamjamiyati bilan tom ma’noda integratsiyalashuvini ta’minlamoqda. Qisqacha aytganda, bugun O‘zbekiston dunyoni o‘ziga chorlayapti, yopiqlikdan ochiq pragmatik siyosat sari yuzlanmoqda. Bunday holat bugungacha mavjud bo‘lgan tartib-qoidalarni isloh qilishni, ularni dunyo andozalariga uyg‘unlashtirishni taqozo etadi va bu, albatta, mamlakatning ijtimoiy siyosatida ham o‘z aksini topmoqda.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev 2020-yil yakunida Oliy Majlisga Murojaatnomasida ijtimoiy sohaga alohida e’tibor qaratdilar: “... aholining ijtimoiy himoyasi yanada kuchaytiriladi. Nogironlikni belgilashning jahon andozalariga mos "ijtimoiy modeli"ga bosqichma-bosqich o‘tiladi.

Muhtoj aholini protez-ortopediya buyumlari va rehabilitatsiya vositalari bilan ta’minlash bo‘yicha yangi tizim joriy etiladi. Bu imkoniyatdan qariyb 50 ming nafar yurtdoshimiz foydalanishi mumkin bo‘ladi.

Ehtiyojmand oilalarni uy-joy bilan ta’minlash bo‘yicha olib borayotgan ishlarimiz ko‘lami yanada kengaytiriladi. Bunda 27 mingta yoki bu yilga nisbatan 2,5 barobar ko‘p oilaning ipoteka krediti bo‘yicha dastlabki badallarini to‘lash va kredit foizlarini subsidiyalash uchun 2,4 trillion so‘m yo‘naltiriladi”[1].

Xalqimizning farovon turmush kechirishi davlatimiz tomonidan olib borayotgan adolatli siyosatning bir natijasidir. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasining davomi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan qabul qilingan “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot Strategiyasi”da fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha davlat siyosati davom ettirilmoqda.

### **Adabiyotlar sharhi**

“Ijtimoiy himoya” atamasi birinchi marta 1935-yilda AQShning “Ijtimoiy xavfsizlik bo‘yicha qonun” deb nomlangan huquqiy hujjatida qo‘llanilgan. Mazkur qonunga ko‘ra, mamlakat har bir fuqarosining ishsizlik yoki daromadni yo‘qotish, shuningdek, uning keskin kamayib ketishi (kasallik tufayli, farzand tug‘ilishi natijasida, ishlab chiqarish jarohati oqibatida, nogironlik sababli) bois iqtisodiy va ijtimoiy ne‘matlardan mahrum bo‘lishdan himoya qiluvchi chora-tadirlar tizimi ijtimoiy himoya deb e‘tirof etilgan.

Rus iqtisodchi olimi O.V.Romashev o‘z asarlarining birida ijtimoiy himoya atamasini quyidagicha izohlagan: “...ijtimoiy himoyalash - bu mehnatga layoqatli fuqarolarga o‘zlarining shaxsiy mehnat ulushlari, iqtisodiy mustaqilligi va tadbirkorligi hisobiga davlat tomonidan ko‘rsatiladigan huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik kafolatlar tizimini tushunishimiz kerak”[2].

Akademik Q.X. Abdurahmonov “Ijtimoiy muhofaza tizimi – aholining hayotiy muhim manfaatlari sohasi bo‘lib, uning sifat va miqdor ko‘rsatkichlari davlat va jamiyatning iqtisodiy, huquqiy va madaniy rivojlanish darajasidan darak beradi. Ijtimoiy muhofazalanish huquqi – odamning munosib turmush kechirish uchun zarur bo‘lgan hajmdagi fiziologik, ijtimoiy va ma‘naviy ehtiyojlarini qondirish imkoniyati hisoblanadi”[3] deb ta‘kidlaydi.

A.V.Vahobovning fikricha “bozor munosabatlariga o‘tish davrida ijtimoiy himoya o‘zining manzilini o‘zgartirmoqda, ya‘ni u aholining o‘zini muayyan bir sharoitda hayot kechirish zarur bo‘lgan ne‘matlarni eng kam darajasi bilan ta‘minlay olmaydigan qatlamlariga maqsadli yo‘naltirilgan”[4]. Darhaqiqat, hozirgi bosqich uchun ijtimoiy himoyaga berilgan yuqoridagi ta‘rif uning manzilligini, to‘g‘ri talqin etilganligini ko‘rsatadi. Chunki, hozirgi kunda ijtimoiy himoyaning aniq yo‘naltirilganligiga, manzilliligiga katta e‘tibor berilmoqda.

Sh.A.Mirzayevning fikricha “Ijtimoiy himoya davlatning ijtimoiy siyosatini turli shakl va mexanizmlari orqali fuqaroligi, jinsi, millati, yoshidan qat‘iy nazar amalga oshiradigan choralaridir”[5].

Bir qator iqtisodchi olimlar “Ijtimoiy himoya mustaqillikning moddiy va ma‘naviy asoslarini mustahkamlash va bozor islohatlarini amalga oshirish davrida aholini ijtimoiy va moddiy muhofaza qilish va milliy xo‘jalikda amal qiladigan iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy va xatto, siyosiy chora-tadbirlar majmui bo‘lib,

xususan, aholining yoshi, salomatligi, ijtimoiy holati hamda hayot kechirishning zarur vositalarga ega bo‘lmaganligi sababli yordamga muhtoj qatlamiga davlat va jamoat tashkilotlari va jamg‘armalarning yordami hisoblanadi”[6] deya o‘z qarashlarini namoyon etganlar.

### **Tahlil va natijalar.**

Bugungi kunda aholining ijtimoiy himoyasi tizimini mustahkamlash, uning manzilliligini oshirish, ijtimoiy himoyaning faol shakllarini yo‘lga qo‘yish alohida dolzarblik kasb etdi.

O‘zbekistonda keyingi yillarda jamiyatimiz hayotidagi yangilanish jarayonlari va islohotlarni chuqurlashtirishning mantiqiy davomi bo‘lib iqtisodiyotning salohiyati, barqarorligi va mutanosibligini mustahkamlash asosida ijtimoiy himoyani kuchaytirishga va fuqarolarning turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan ishlarimizda yangi va yuksak bosqich bo‘ldi. Bu davrda aholining ijtimoiy himoyasi tizimini mustahkamlash, uning manzilliligini oshirish, ijtimoiy himoyaning faol shakllarini yo‘lga qo‘yish alohida dolzarblik kasb etdi[8].

Bugungi kunda mamlakatimizda davlat byudjeti mablag‘lari va boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladigan ijtimoiy himoyaning quyidagi turlarini qayd etish mumkin[9]:

1. Bolali oilalarga nafaqalar:

- bola tug‘ilganda;
- bola 2 yoshga to‘lguncha parvarishlash uchun;
- 16 yoshgacha bo‘lgan bolalari bor oilalarga.

2. Ijtimoiy nafaqalar:

- tug‘ma nogironlar va boshqa toifalardagi nogironlarga;
- mehnatga layoqatsiz keksalarga ;
- boquvchisini yo‘qotgan oilalarga.


3. Ijtimoiy ta‘minot muassasalari orqali yordam (qariyalar va nogironlar uylari, Chernobel AESdagi falokatda qatnashganlarga moddiy yordamlar ko‘rsatish, ruhiy zaif va kasalmand bolalar uchun internatlar va boshqalar.

4. Turli imtiyozlar (bepul yoki arzonlashtirilgan narxda transport vositalari va nogironlik aravachalari bilan ta‘minlash, sanatoriy-kurort yo‘llanmalari bilan ta‘minlash, protezlash, soliqqa doir imtiyozlar va boshqalar).

5. Kam ta‘minlanganlik bo‘yicha nafaqalar.

Umuman olganda, mamlakatimizda davom etayotgan va bozor iqtisodiyotini qaror toptirishga qaratilgan chuqur ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar umuman fuqarolarni samarali ijtimoiy himoyalashni, xususan, korxonalar xodimlarini himoya qilishni nihoyatda muhim vazifalardan biriga aylantirdi.

Barchamizga ma'lumki, mamlakatimizda mustaqillik qo'lga kiritilgach, davlat moliya sohasida, xususan, davlat byudjeti xarajatlari, ularning yo'nalishlarini belgilash sohasida qator islohotlar amalga oshirildi. Dastlabki yillarda amalga oshirilgan islohotlar moliyaviy resurslar tanqisligi davrida davlat zimmasidagi yuklatilgan birlamchi vazifalarni amalga oshirish, ayniqsa, ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab quvvatlashga bo'lgan e'tiborni kuchaytirdi.



### **1-rasm. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tadbirlarini moliyalashtirish manbalari[10].**

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tadbirlari bir qator moliyalashtirish manbalariga ega bo'lib, davlat byudjeti mablag'lari ular ichida asosiy ahamiyatga va salmoqli o'ringa ega.

Davlat byudjeti xarajatlari 2019-yilda 107118,4mlrd. so'mni va 2023-yilda 257 734 mlrd. so'mni tashkil etgan. Jami byudjet xarajatlari takribida ijtimoiy soha xarajatlari yillar mobaynida o'zgarib, 2019 yilda 54 %ni, 2020 yilda 50.4 %ni, 2021 yilda 52.2 %ni, 2022 yilda 49.7 %ni va 2023 yilda 50.4 %ni tashkil etgan.

Nafaqa, moddiy yordam va kompensatsion to'lovlar xarajatlarining jami byudjet xarajatlaridagi ulushi 2023 yilda 2019 yildagi 4,9 %da 7,0 % ga, uy-joy qurish dasturi xarajatlari ulushi 2019 yildagi 2,8 %dan 2021 yilda 0,4 %ga tushgan, pensiya jamg'armasiga transfertlar ulushi esa 2019 yildagi 4,4% 2023 yilda 5.8% ga ko'tarilgan.

O'z navbatida o'tgan 5 yil mobaynida ijtimoiy nafaqa, moddiy yordam va kompensatsion to'lovlar xarajatlari, pensiya jamg'armasiga transfertlar xarajalarining ijtimoiy soha xarajatlaridagi ulushi ortib, uy-joy qurish dasturi xarajatlari 1,4% ga tushgan


**1-jadval**

**2019-2023 yillarda O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti xarajatlari tarkibida aholini ijtimoiy himoya qilish xarajatlarining tutgan o'rni,[9] mlrd. so'mda**

	<b>Xarajatlar</b>	<b>2019 yil</b>	<b>2020 yil</b>	<b>2021 yil</b>	<b>2022 yil</b>	<b>2023 yil</b>
	Davlat byudjeti xarajatlari	107118,4	131104,5	188257,1	236692,0	257 734
	Ijtimoiy soha xarajatlari	57822,3	66018,1	92013.6	117691,9	129 891
	Jami byudjet xarajatlariga nisbatan %da	54,0	50,4	48.9	49.7	50.4
1	nafaqa,moddiy yordam va kompensatsion to'lovlar xarajatlari	5267,2	6 573,70	10 880,3	19 397,1	18 067
1.1	jami byudjet xarajatlariga nisbatan %da	4,9	5,0	5,8	8,2	7,0
1.2	ijtimoiy soha xarajatlariga nisbatan, %da	9,1	9,9	11,8	16.5	14
2	uy-joy qurish dasturi xarajatlari	2978,1	1 905	2409	1 010,8	1 100
2.1	jami byudjet xarajatlariga nisbatan %da	2,8	1,5	1,5	0,4	0,4
2.2	ijtimoiy soha xarajatlariga nisbatan, %da	5,2	2,9	2,8	0,9	0,8
3	Pensiya jamg'armasiga transfertlar	4700	8 000	14 700	11 092,0	15 000
3.1	jami byudjet xarajatlariga nisbatan %da	4,4	6,1	8,9	4.7	5.8
3.2	ijtimoiy soha xarajatlariga nisbatan, %da	8,1	12,1	17,0	9.4	11.5




COVID-19 pandemiyasi inqirozi barcha mamlakatlarda ijtimoiy himoya muammolarini kuchaytirdi. Aholini qo‘llab-quvvatlash choralari ijtimoiy zaif toifalarni qo‘llab-quvvatlash byudjet xarajatlarining dolzarb masalalariga aylandi. 2021-yilda oilalarni ijtimoiy nafaqalar bilan qamrab olishning o‘shishi davom etadi. Ijtimoiy nafaqa oladigan kam ta‘minlangan oilalar soni 2020-yil boshiga nisbatan ikki baravarga ko‘paydi. 2021-yilda yetim bolalarni qo‘llab-quvvatlashga ko‘proq e‘tibor qaratiladi. Birinchi marta byudjetda chin yetimlarni uy-joy bilan ta‘minlash maqsadida 50 mlrd so‘m ajratilishi ko‘zda tutildi.



**2-rasm. Ijtimoiy nafaqalar oluvchilar to‘g‘risida ma’lumot[11]\***

2-3-rasmlarda ijtimoiy nafaqalar, moddiy yordam va un narxi kompensatsiyasini hisobga olgan holda davlat byudjetidan amalga oshiriladigan xarajatlari to‘g‘risida ma’lumot keltirilgan. Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, davlat byudjeti hisobidan ijtimoiy nafaqalar oluvchilar soni va buning natijasida ijtimoiy himoya uchun ajratiladigan xarajatlar summasi yildan-yilga

olib bormoqda, xususan, 2023-yilda 2020-yilga nisbatan jami nafaqa oluvchilarning soni 780 102 taga va jami xarajat summasi esa 7 186.7 mlrd. soʻmga koʻpaygan. Jumladan, bolali va kam taʼminlangan oilalarga nafaqalar boʻyicha nafaqa oluvchilar 625 800 taga, Qoraqalpogʻiston Respublikasi va Xorazm viloyatida muhtoj oilalarga bir martalik beriladigan moddiy yordam oluvchilar soni 6219 taga, bolalikdan nogironlik nafaqasi oluvchi shaxslar soni 35 062 taga koʻpaygan boʻlsa, mos ravishda xarajat summasi 5 093,3mlrd. soʻm, 1,6 mlrd. soʻm va 871,2 mlrd. soʻmga ortgan. Bola tugʻilganda toʻlanadigan bir martalik toʻlov beriladigan moddiy yordam oluvchilar soni 18 920 taga, xarajat summasi esa 112,2 mlrd. soʻmga, zarur boʻlgan ish stajiga ega boʻlmagan shaxslar va nogironlgi boʻlgan shaxslarga nafaqalar boʻyicha oluvchilar soni 94 561 taga, xarajat summasi 1053,6 mlrd. soʻmga oshgan. Shuningdek, 2023-yilda dafn uchun toʻlanadigan nafaqa oluvchilar 15 228 taga kamaygan ammo xarajat summasi 14,9 mlrd. soʻmga koʻpaygan.



**3-rasm. Ijtimoiy nafaqalar uchun byudjetdan xarajatlarni toʻgʻrisida maʼlumot[11]\***



O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 8-yanvardagi “Ayollarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi 2-sonli qarori bilan “Ayollar daftari” tizimi yo‘lga qo‘yildi. Ushbu tizimning asosiy maqsadi ayollar orasida vujudga kelayotgan muammolarini hal etish bo‘lib, ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tartibi to‘g‘risidagi vaqtinchalik Nizom tasdiqlandi. Ushbu nizomda “Ayollar daftari” ga kiritiladigan 30 yoshdan oshgan ayollar toifalari belgilab berildi.

2021-yilda “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” va “Temir daftar”ga kiritilgan xotin-qizlarni uy-joy bilan ta‘minlash maqsadida, ularga ipoteka kreditlari bo‘yicha boshlang‘ich badalni to‘lab berish va ijtimoiy uy-joylar sotib olish uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga:

- noturar joylarda istiqomat qilayotgan ayollarni uy-joy bilan ta‘minlashga - 10 milliard so‘mdan;
- ota-onasidan yoki ularning biridan ayrilgan hamda yolg‘iz onasi, yolg‘iz otasi yoki boshqa shaxslar qaramog‘ida bo‘lgan voyaga yetgan uy-joyga muhtoj xotin-qizlarni uy-joy bilan ta‘minlashga - 5 milliard so‘mdan mablag‘ ajratildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 13-iyuldagi PF-6260-son farmonini ijrosini ta‘minlash maqsadid 2021-yil 12-oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 637-son qaror bilan “Temir daftar” va “Ayollar daftari”ga kiritilgan oilalarning farzandlari hamda “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yangi turmush qurgan yoshlarning yakka tartibdagi xonadonida qo‘shimcha uy-joy qurish uchun garovsiz kredit ajratish tartibi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlandi.

Avvallari ijtimoiy nafaqalar fuqarolar yig‘inlari tomonidan ehtiyojmand oilalarga ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam tayinlash vakolatini amalga oshirish jarayonida oilaning o‘rtacha jami daromadi miqdorini aniqlashda oshkoralik va ijtimoiy adolat tamoyillariga amal qilgan holda davlat mablag‘lari hisobidan ko‘rsatilayotgan ijtimoiy yordamni manzilli va maqsadli bo‘lishini ta‘minlashga ahamiyat qaratilgan bo‘lsa, bugungi kunda nafaqa tayinlash tartibi avtomatlashtirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligiga 2022-yil martga qadar jismoniy shaxslarning dala tomorqa yer

maydonlari ro'yxati shakllantirilishini va ushbu ma'lumotlarning "Ijtimoiy himoya yagona reestri" axborot tizimiga taqdim etib borish vazifasi yuklatildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevralda "2021-2030 yillarda O'zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi F-5634-sonli farmoyishi bilan 2021-2030-yillarda aholini ijtimoiy himoya qilish milliy strategiyasi konsepsiyasi tasdiqlandi. Hujjatga ko'ra, ijtimoiy nafaqa olish jarayonini soddalashtirish rejalashtirilgan. 2030-yilda davlat byudjetining ijtimoiy himoyaga yo'naltirilgan xarajatlari YaIMga nisbatan 1,5%ga yetkaziladi. Ijtimoiy himoya sohasida yagona mas'ul organ tuziladi.

Shuningdek, ushbu hujjat bilan 2021–2030- yillarda aholini ijtimoiy himoya qilish milliy strategiyasi konsepsiyasi va strategiyani ishlab chiqish bo'yicha "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi. Aholini ijtimoiy himoya qilish milliy strategiyasida ijtimoiy himoya sohasida ijtimoiy yordam va xizmatlarning bazaviy kafolatlari belgilanadi.

Bunga quyidagi chora-tadbirlar kiritildi:

- asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari, ta'lim, parvarish va boshqa zarur bo'lgan mahsulotlar va xizmatlar olishga imkoniyati bo'lmagan bolalarga ko'maklashish;

- kasallik, ishsizlik, onalik va nogironlik kabi holatlar tufayli o'zini o'zi ta'minlash masalalarini to'liq hal qila olmaydigan mehnatga layoqatli fuqarolarni kafolatlangan daromadlar bilan ta'minlash;

- keksa yoshdagi fuqarolarni kafolatlangan daromad bilan ta'minlash.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda aholini ijtimoiy himoya qilish milliy strategiyasi konsepsiyasi amaldagi ijtimoiy himoya tizimining samarali ishlashiga to'sqinlik qiladigan asosiy kamchiliklar ham mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- ijtimoiy himoya sohasida kompleks yondashuvning mavjud emasligi, ya'ni ijtimoiy himoya sohasidagi munosabatlarni davlat tomonidan yagona muvofiqlashtiruvchi organning mavjud emasligi;

- kambag'al va aholining ijtimoiy himoyalanganlik jihatidan zaif qatlamlarning yetarli darajada qamrab olinmaganligi;

- hayoti davomida barcha fuqarolar uchun hech bo'lmaganda asosiy ijtimoiy muhofazaning, shu jumladan, asosiy tibbiy yordamdan foydalanish,

onalikni muhofaza qilish va bazaviy daromadlarni ta'minlaydigan kafolatlarning yo'qligi;

- shaffoflikni yetishmasligi, ya'ni ijtimoiy nafaqalarni olish jarayonini kuzatish uchun sharoitning yo'qligi;

Bunday tizimning saqlanib qolinishi mavjud muammolarni chuqurlashishiga olib keladi va aholini turmush farovonligini yaxshilanmasligiga sabab bo'ladi.

### **Xulosa va takliflar**

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, tadqiqot yakunida bir qator xulosalar shakllantirildi:

Birinchidan, mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlar aholining muhtoj qatlamlarini ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan bo'lib, taraqqiyotning strategik maqsadlariga mos keladi. Aholini ijtimoiy qilishni mavjud tamoyillar asosida tashkil etish, kam ta'minlanganlikning muammolarini aniqlash, uning salbiy oqibatlarini bartaraf etish, ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish hamda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sifatining oshishini ta'minlashga xizmat qiluvchi tashkilotlar faoliyatini yo'lga qo'yishga zarurat tug'ilmoqda.

Ikkinchidan, mamlakatimizda aholini ijtimoiy himoya qilishning 2030-yilgacha Milliy strategiyasi Xalqaro mehnat tashkiloti, YUNISEF, BMT Taraqqiyot Dasturi va Jahon bankining yetakchi mutaxassislaridan iborat ekspertlar guruhi ishtirokida ishlab chiqildi. Ijtimoiy himoya bo'yicha milliy strategiyadan jahon andozalariga mos ravishda kambag'allikni kamaytirish va ijtimoiy himoyani kuchaytirishni ta'minlashga erishishda samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 29.12.2020, <http://www.press-service.uz>
2. Ромашев.О.В. Социальная защита трудящихся : проблемы, пути решения/Соц исследования-1993, №1 С-88.
3. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti (nazariya va amaliyoti). Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – T.: Mehnat, 2004.– 610 b.
4. Vahobov A. Bozor munosabatlariga o'tish bosqichidagi ko'p ukladli iqtisodiyot va uning takroran hosil bo'lishi. T.: Moliya, 2002- B.45.

5. Мирзаев Ш.А. «Пути усиления адресности социальной защиты населения в условиях переходной экономики» (на материалах Узбекистана) // автореферат дис. , Ташкент–2006.–С. 8
6. То‘хлиев N., Haqberdiev Q., Ernazarov Sh., Xolmatov N. O‘zbekiston iqtisodiyoti asoslari. -T.: 2006, -B.260
7. Qosimova G.A., Ametova F. R. Xorijiy mamlakatlarda ijtimoiy himoya xarajatlarini moliyalashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari. Iqtisod va moliya / Экономика и финансы. 2017, № 2.
8. Nurmuxamedova B. Davlat byudjeti: O‘quv qo‘llanma / – T.: —Iqtisod-Moliya, 2018. – 576 b
9. [www.imv.uz//](http://www.imv.uz//) O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy sayti ma’lumotlari.
10. Abdurahmonov Q.X. va boshqalar. Ijtimoiy soha iqtisodiyoti. Darslik. –T.: —Iqtisodiyot, 2013. 125-b
11. I Ruxshona. Optimization of social support expenditures within the state budget expenditures/ Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development 23 25-32, 2024
12. M Sharapova, R Isaxonova. Sog‘liqni saqlash tizimida tez tibbiy yordam xizmati faoliyatini takomillashtirish masalalari.- Science and innovation in the education system, 2023
13. Fuqarolar uchun byudjet 2023. БМТТД, 2023 ([www.uz.undp.org](http://www.uz.undp.org))
14. O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi.2013 yil, 26 dekabr